

**XALQARO IQTISODIYOTDA TASHQI SAVDONING MAMLAKAT  
IQTISODIYOTIGI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY  
USULLARI**

***Sharipov Narzullo G'ulomovich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, iqtisodiyot kafedrasи katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada xalqaro iqtisodiyotda tashqi savdoning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, uning iqtisodiy o'zgarishlarga ta'siri, tashqi savdoning mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni, tashqi savdoni amalga oshirishdagi muammolar, tashqi savdoni amalga oshirishning zamonaviy usullari hamda ularni amalda qo'llashga doir ma'lumotlar keltirilgan. Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotiga jalg qilish darajasi tashqi savdo aylanmasi hajmining o'sishi bilan va milliy iqtisodiyot manfaatlari nuqtai nazaridan ishtirok etish samaradorligining ko'rsatkichi bilan baholanadi. Bu shuni anglatadiki, mamlakat ma'lum printsiplar asosida jahon iqtisodiyoti, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro savdoga kiritilgan bo'lishi kerak. Ushbu tamoyillarga rioya qilish milliy rivojlanish strategiyasining muhim qismlaridan biri bo'lib, davlat nazorati ostida bo'lishi kerak. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan tadqiqot metodlari berilgan. Bunda tashqari tashqi savdo tahlili va turlari hamda korxonalarda ularni boshqarishning ob'ektiv zarurligi, shuningdek, bu boradagi ilg'or xorij tajribasi va amaliyoti keltirilgan. Tahlillar asosida tegishli xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi savdo, xalqaro iqtisodiyot, eksport, import, jahon bozori.

**Annotation**

In this article, the role of foreign trade in the country's economy in the international economy, its influence on economic changes, the role of foreign trade in the economy of countries, problems in the implementation of foreign trade, modern methods of foreign trade and their practical application. information is provided. The degree of involvement of the country in the international division of labor is evaluated by the growth of the volume of foreign trade turnover and by the indicator of the efficiency of participation from the point of view of the interests of the national economy. This means that the country should be included in the world economy, international division of labor, and international trade based on certain principles. Compliance with these principles is one of the important parts of the national development strategy and should be under state control. Research methods used in the research process are given. In addition, the analysis and types of foreign trade and the objective necessity of their management in enterprises, as well as advanced foreign

experience and practice in this regard, are presented. Based on the analysis, appropriate conclusions and suggestions are made.

**Key words:** foreign trade, international economy, export, import, world market.

## **KIRISH**

Mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi uchun xalqaro iqtisodiyot o‘z o‘rniga va ahamiyati egadir. Xalqaro iqtisodiyot har bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini teng manfaatli xalqaro hamkorlik va jahon bozoriga chuqur integratsiyalashuvni ta’minlash asosida rivojlantirishga zamin yaratadi. Xalqaro iqtisodiyot xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarining harakati va moliyalashtirish, xalqaro iqtisodiy siyosatni shakllantirishda turli xil davlatlarga tegishli xo‘jalik subyektlarining o‘zaro harakatlari qonuniyatlarini o‘z ichiga oladi. Xalqaro iqtisodiyotda markaziy o‘rinni tashqi savdo, savdo siyosati, valyuta bozorlar va to‘lov balansining tahlili egallaydi. Tashqi savdo, savdo siyosati va ishlab chiqarish omillarini bitta mamlakatdan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishi xalqaro iqtisodiyotning mikroiqtisodiy qismini tashkil etadi.

Mamlakatning xalqaro integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki va tashqi bozorlarga chiqishi milliy iqtisodiyotning sog‘lomligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi sababli, tashqi savdo iqtisodiy tadqiqotlarning o‘ziga xos yo‘nalishi hisoblanadi. Mamlakatning tashqi savdodagi ishtiroki va undan manfaatdorligi eksport va import hajmiga ta’sir qiluvchi YaIMning o‘sishiga olib kealdi. Eksport samaradorligi darajasini oshirish jahon bozorlarida raqobatlashish, investitsiyalarni rag‘batlantirishga hissa qo‘shadigan daromadlarni olish, mamlakatdagi iqtisodiy harakatga ijobjiy ta’sirni oshirish va umuman iqtisodiy o‘sishni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tashqi savdo kompaniyalarga o‘z mahsulotlarini namoyish qilish uchun mavjud bozorlar sonini ko‘paytiradi. Bu esa mahsulotni mahalliy va xalqaro miqyosda ishlab chiqarish va sotish jarayonini yaxshilaydi. Chunki biznesning uzlusiz o‘sishi, albatta, iqtisodiy taraqqiyotning yuksalishiga olib keladi.

Ko‘pgina mamlakatlardagi kompaniyalar xizmatlar va tovarlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun tashqi savdo nuqtai nazaridan ishlamoqda. Bu vaqt o‘tishi bilan daromadlarning o‘sishini kuchaytiradi va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi ko‘proq investitsiyalarni rag‘batlantiradi. Davlatlarning yangi bozorlarga kirishi ushbu davlatlar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarni bilish imkoniyatini oshiradi va shuning uchun ular taqdim etayotgan mahsulot va xizmatlarga talabning o‘sishi ko‘pincha mahalliy bozorga qaraganda yaxshiroq narxlarda bo‘ladi. bu esa iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan tizim hisoblanadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Tashqi savdo, uni rivojlantirish va shakllantirish muammolari bir qator ilmiy ishlarda ko‘rib chiqilgan va ishlab chiqilgan. Shunday qilib, ushbu masalaning klassik nazariy jihatlari A.Smit, D.Rikardo, T.Menn tomonidan yoritilgan. A.Smitning

mutlaq afzallik nazariyasiga, D.Rikardo, T. Xeksher-Olin-Samuelsonning nisbiy afzalliklariga, eksport bazasi nazariyalari bugungi kunda ham tashqi savdoga bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tashqi savdo munosabatlari nazariyasi va V. N. shimov, A. V. Bondar, V. N. Ermashkevich, S. N. Knyazev, G. A. Shmarlovskiy kabi Belarus olimlari va E. N. Smirnov, E. F. Prokushhev, N. A. Volgina va boshqalar kabi bir qator rus mualliflarining hissalarini ta'kidlash kerak (Ю.А. Гаджиев, 2009, 45-bet).

Jahon iqtisodiyoti bo'yicha adabiyotlarda "tashqi savdo" tushunchasining turli xil talqinlari mavjud. V. V. Pokrovskayaning (2015) fikricha, tashqi savdo deganda turli mamlakatlar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqa shakli tushuniladi, bu tovar aylanmasi sohasiga asosan tashqi savdo shartnomalari bilan rasmiylashtirilgan tijorat bitimlari orqali xizmat qiladi.

R. I. Xasbulatov (2015) ta'kidlashicha, tashqi savdo deganda ma'lum bir mamlakat sotish uchun o'z hududidan tashqariga olib chiqadigan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bir qismini, shuningdek tovarlar, xizmatlar va boshqa moddiy va moddiy bo'limgan xususiyatlarning bir qismini tushunadi, chunki mamlakat chet eldan olib keladi.

Tashqi savdoning muhimlik darajasi va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda taraqqiyot yo'lida ob'ektiv zarurat ekanligi ko'plab iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda ham ushbu mavzu o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Tashqi savdo eksportning tarkibiy xususiyatlari va uning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini birinchilardan bo'lib o'z tadqiqot ishida Prebish Raul (2018) ko'rib chiqqan. Uning tadqiqotlari natijasi shuni ko'rishimiz mumkinki, davlatning xomashyo eksportiga ixtisoslashuvi ushbu davlat va tayyor mahsulotlar eksport qiluvchi rivojlangan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutni oshirib boradi. Buning sababi shuki, jahon bozorida yuqoridagi ikki turdag'i mahsulotlarga bo'lgan narxlar turli ko'rinishlarda o'zgaradi va talabning barqarorlik darajasi ham farq qiladi.

Shuningdek, eksportning tovar tarkibi va uning iqtisodiy o'sishdagi bevosita roli V.Maloniy (2012) va D.Lederman (2012) o'z tadqiqot ishlarida o'rganganlar. Ilmiy izlanuvchilar eksport qilinayotgan davlatlarning qayta ishlanganlik darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni ko'rsatib bergenlar.

Y.G.Kozaka (2011) va S.N.Lebedevoy (2011) o'z tadqiqot ishlarida, tashqi savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'rnatishning ilg'or shakllaridan biri va jahon iqtisodiyotini shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga va tovarlar, xizmatlar, intellektual mehnat mahsulotlari xalqaro almashinuvi sohasida ularning o'zaro bog'liqligini kuchaytirishga yordam beradi deb ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishda bir nechta olimlar tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib boganlar. Jumladan, S. A'zam (2018) o'z tadqiqot ishlarida

mamlakatimiz tashqi savdosini tarkibiy takomillashtirish imkoniyatlari va salohiyatini o’rganib chiqqan. Shuningdek, u o’z tadqiqot ishlarida xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar va tashqi savdo geografik tarkibi o’rtasida bog’liqlik mavjudligini ko’rsatib bergen.

### METODOLOGIYA


Tadqiqotda qiyosiy tahlil, dinamikada o’rganish, ma’lumotlarni guruhlash, ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda internet tarmog‘idagi rasmiy saytlardan olingan ikkilamchi ma’lumotlardan ham foydalanildi. Mazkur ma’lumotlar asosida xalqaro iqtisodiyotda tashqi savdoni rivojlantirish usullari va ahamiyati, shuningdek ilg‘or xorij tajribasiga tayangan holda ularning ijobjiy jihatlarini amalda qo’llash imkoniyatlari tadqiq etilgan.

### NATIJALAR

Xalqaro iqtisodiyotda tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlaridan foydalangan xolda davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o’zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ham ayon bo‘lib qolmoqda. Natijada, oxirgi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo‘nalishlarda o’zgarishlar ro‘y bermoqda. Mamlakatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o’zgarishlar namoyon bo‘lmoqda.

Davlatlarning tashqi savdo sohasidagi asosiy vazifalari mamlakat ichki bozorida tovarlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonida mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini yengillashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va shu kabi tashqi ishlab chiqaruvchilar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlariga zarar yetkazmasliklari hisoblanadi. Bozor, shuningdek eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yordam berish ham asosiy maqsadlaridan biridir.

Tashqi savdo mamlakatlarning eksport va import hajmining oshishiga ta’sir qiladi va mamlakat iqtisodiyotni rivojlantirishda salmoqli hissa qo’shamdi. Tashqi savdo aylanmasini rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lgan Buyuk Britaniya misolida ko‘radigan bo‘lsak, 2023 yilda Buyuk Britaniyaning tovar va xizmatlar eksporti 865 milliard funt sterlingni, import esa 898 milliard funt sterlingni tashkil etdi. 2023 yilda Buyuk Britaniyaning tovar va xizmatlar eksportining 41 foizi va importining 52 foizi Yevropa Ittifoqi hissasiga to‘g‘ri keldi (1-rasm).



### 1-rasm. Buyuk Britaniyaning savdo ko‘rsatkichlari va to‘lov balansi bo‘yicha so‘nggi statistik ma'lumotlar<sup>1</sup>

Buyuk Britaniya odatda eksport qilishdan ko‘proq import qiladi, ya’ni u savdo kamomadiga ega. Tovarlar savdosidagi 187 milliard funt sterlinglik kamomad 2023-yilda xizmatlar savdosi bo‘yicha 153 milliard funt sterlinglik profitsit bilan qoplandi. Umumi savdo kamomadi 2023-yilda 33 milliard funt sterlingni tashkil etdi. Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqi bilan savdo kamomadi 109 milliard funt sterlingni tashkil etdi. 2023-yilda va Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lmagan davlatlar bilan savdo balansi 75 milliard funt sterlingni tashkil etdi. Barcha mamlakatlar bilan savdo taqchilligi 2024-yil yanvarigacha bo‘lgan uch oy ichida oldingi uch oyga nisbatan 9,5 milliard funt sterlinggacha kamaydi. Bu davrda naqd hisobda eksport 1,9 foizga, import esa 1,8 foizga kamaydi.

Investitsion daromadlar va transferlarni hamda savdoni o‘z ichiga olgan joriy hisobda 2022-yildagi 77 milliard funt sterlingga nisbatan 2023-yilda 89 milliard funt sterling kamomad kuzatildi. Joriy hisob taqchilligi 2023-yilda YaIMning 3.3 foizini, 2022-yildagi 3.1 foizni tashkil etdi(1-jadval).

### 1-jadval

#### Buyuk Britaniyaning tovarlar va xizmatlar savdosi va joriy hisob balansi<sup>2</sup>

Vaqt ko‘rsatkichlari	Eksport	Import	Balanse	Milliard funt sterling	YaIM (%)
2022	837.8	904.6	-66.8	-77.2	-3.1%

<sup>1</sup> <https://commonslibrary.parliament.uk> saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>2</sup> <https://commonslibrary.parliament.uk> saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2023	864.5	897.9	-33.4	-88.5	-3.3%
2022 4-chorak	232.1	230.3	1.8	4.1	0.6%
2023 1-chorak	218.1	228.1	-10.0	-21.0	-3.2%
2023 2-chorak	217.1	226.4	-9.3	-27.9	-4.1%
2023 3-chorak	213.7	220.4	-6.7	-18.5	-2.7%
2023 4-chorak	215.6	223.0	-7.4	-21.2	-3.1%

Joriy hisob taqchilligi 2023 yilning III choragidagi 18,5 milliard funt sterling (YaIMning 2,7%) taqchilligiga nisbatan 2023-yilning IV choragida 21,2 milliard funt sterlingga (YaIMning 3,1 foizi) oshdi.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida Buyuk Britaniyaning tashqi savdo aylanmasida vujudga keladigan eksport, import va investitsion holatlarni ko'rib o'tdik. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham tashqi savdo holati ancha rivojlangan hisoblanadi. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilib kelmoqda. Xususan, davlatimizning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon yaratib bermoqdia Natijada ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'immoqda.

Mamlakatimizda bu borada keyingi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yil yanvar-oktabr oylarida O'zbekistonning savdo aylanmasi 51,0 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,3 mlrd. AQSH dollariga yoki 25,2 % ga ko'paydi<sup>3</sup>(2-jadval).

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy stat.uz saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2022-2023-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi<sup>4</sup>

Yillar	Tashqi savdo aylanmasi (TSA)	Eksport	Import	Saldo
2022	44717,9	20470,2	30503,6	-9014,0
2023	50973,8	15852,0	24865,9	-10033,3
Ko‘satkichlar farqi (%)	25,2%	29,1%	22,7%	
TSAdagi ulushi		40,2	59,8	

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 20470,2 mln. AQSH dollariga (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 29,1 % ga ko‘paydi) va import hajmi 30503,6 mln. AQSH dollariga (22,7 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -10033,3 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

Mamlakat tashqi savdo faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirib boorish kerak. Buning davr talabiga mos keladigan va tashqi savdoni rivojlantiradigan zamonaviy usullardan foydalanish kerak. Tashqi savdoni rivojlantiradigan zamonaviy usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Eksport talabiga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish. Bunda mamlakat yoki korxona o‘zi ishlab chiqarayotgan mahsulotini yoki xizmatini eksport qiladigan bozor talabiga moslashi kerak bo‘ladi, ya’ni mijozlar talabiga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Tashqi savdoning har qanday muvaffaqiyatli rejasi yuqori sifatli, noyob mahsulotdan boshlanishi kerak. Bozorda mavjud bo‘lgan narsalarni nusxalab chiqarish raqobatda ustunlikka erishishga to‘sinqinlik qiladi chunki xorijdagi mavjud raboqatchilar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatdosh mahlusotlarga ega bo‘lishning afzalliklariga ega. To‘g‘ri mahsulot chet elda savdo imkoniyatlari haqida gap ketganda katta farq qiladi.

2. Zamonaviy marketing tadqiqotlardan unumli foydalanishi kerak. Tashqi savdo uchun marketingl strategiyani yaratish keng qamrovli bozor tadqiqotlarini o‘tkazishni anglatadi. Kompaniyalar o‘z vazifalarini bajarishga tayyor bo‘lishi kerak: bu ko‘rib chiqilayotgan bozor imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, xalqaro va mahalliy raqobatchilarni aniqlash, mahsulotga bo‘lgan talabni baholash va xalqaro faoliyatni qurishga arziydigan noyob mahsulo va xizmatlar taklifini ishlab chiqishni anglatadi. Bozor tadqiqotlari korxonalarga maqsadli mijozlarning tashqi bozorlardagi ehtiyojlari, afzalliklari va xatti-harakatlarini tushunish imkonini beradi. To‘liq tadqiqotlar

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy stat.uz saytidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

o‘tkazish orqali kompaniyalar bozor tendentsiyalari, iste’molchilar talabi va raqobatbardosh landshaftlarni aniqlashlari mumkin. Ushbu ma'lumotlar korxonalarga o‘z mahsulotlari, xizmatlari va marketing strategiyalarini har bir bozorning o‘ziga xos talablariga javob berish uchun moslashtirishga imkon beradi.

3. Logistika ta'minot zanjirini rivojlantirish. Logistika ta'minot zanjiri masalalari tashqi savdoga kirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tovarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir mamlakatdan eksport qilish yoki chet ellik ishlab chiqaruvchilarga tovarlarni yangi geografik joylarga yetkazib berishni buyurish, iloji boricha kam zaif tomonlari bilan mustahkam ta'minot zanjirini qurish kerak bo‘ladi. Mavjud hamkorlar xalqaro mijozlar va postlarga barqaror jo‘natmalarni qo‘llab-quvvatlashiga ishonch hosil qilish kerak. Buni qilmaslik, erta buyurtma berishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin chunki mamlakat yoki korxonalar yangi joyda o‘z mahsulotlarini sotolmasdan eksportdagi o‘rnini yo‘qotishi mumkin.

4. Bojxona tizimini takomillashtirish. Bojxonani tartibga solish va boshqaruvini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, eksport-import operatsiyalarini rag‘batlantirish va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishda muhim masala hisoblanadi. Bojxona nazoratida bojxona kuzatuvining samaradorligini oshirish, bunda bojxona nazorati shakllaridan optimal foydalangan holda transport vositalarining manzilga yetib borish uchun sarflanadigan vaqt ni qisqartirilishi – xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashib, tashqi savdoni oshirishga yordam beradi hamda mamlakat hududidan harakatlanayotgan xalqaro yuklar hajmini oshirib borish barbarida ularning vaqtini va unga sarflanayotgan xarajatlarni tejashga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan tashqi savdoni rivojlantiradigan zamonaviy usullardan foydalaniladigan bo‘lsa, mamlakatda tashqi savdo hajmi, ya’ni eksport va import hajmi oshadi va bunda tashqari ko‘plab hamkorlar topishga yordam beradi.

## **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo‘lsak, jahon bozorida ishtirok etayotgan mamlakatlarning so’nggi yillardagi tashqi savdo siyosatida tashqi savdoni tartibga solish dastak va vositalaridan foydalanish tendentsiyalari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Jahon savdosи erkinlashib borishi o‘rniga deyarli barcha davlatlar an‘anaviy qabul qilingan tarif va notarif usullardan tashqari boshqa turdagи dastak va vositalardan o‘zlarining ichki bozorlarini himoyalash yoki tashqi bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan eksportchilarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘llashga harakat qilmoqdalar. Ammo, jahon savdo tashkiloti bunday protektsionistik harakatlar va urinishlarga zid o’larоq tovar, mahsulot, ish va xizmatlarning erkin harakatini ta’minalashga qaratilgan siyosatni davom ettirmoqda.

Barcha mamlakatlar tashqi savdosи majmui xalqaro savdoni tashkil etadi. Tashqi savdo – bu turli davlat milliy xo‘jaliklari o‘rtasidagi tovar va xizmatlaming

ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan tashqi savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Xalqaro va tashqi savdo sohasidagi nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- mamlakat taraqqiyotida tashqi savdoning ijobiy roli global raqobatning kuchayishi munosabati bilan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakatlarning ixtisoslashuvida, sherik davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishda, hayot sifatini yaxshilashda, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olishda, tarqatish kanallarini kengaytirishda;

- rivojlanish ustuvorliklarini ishlab chiqish uchun tashqi savdo holatini doimiy monitoring qilish zarur. Bu erda asosiy vazifalar eksportni kengaytirish, import hajmi va tuzilishini ratsionalizatsiya qilish, jahon bozori bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, tashqi savdo aylanmasini ko'paytirish va ijobiy tashqi savdo balansini saqlashdir;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi mamlakat tashqi savdosining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shunga ko'ra, tahliliy tadqiqotlar o'tkazish kerak, ularning natijalari amaliy faoliyatda ishlatilishi mumkin.

Shunday qilib, tashqi savdoni tahlil qilish va shunga mos ravishda tadqiqot ob'ekti sifatida tashqi savdo munosabatlarini shakllantirish yo'nalishlari zamonaviy sharoitda dolzarb bo'lib tuyuladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tashqi savdoning milliy iqtisodiyotni shakllantirish va muvaffaqiyatli rivojlanishidagi muhim roli, shuningdek, uning mamlakatni integratsiya jarayonlariga muvaffaqiyatli kiritilishiga ta'siri ortib bormoqda.

### **ADABIYOTLAR**

1. Isayev Q.A. (2021) Xalqaro iqtisodiyot. Darslik -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» - 376 bet.
2. Yuldasheva G. (2019) Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Toshkent: TDYuU nashriyoti, - 186 bet.
3. Yo'ldoshev Z. , Xalilova X. (2013) Milliy va jahon iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent, - 286 bet.
4. Ван И. (2022) Современное состояние и тенденции развития внешней торговли россии на фоне электронной торговли // Финансовые рынки и банки. – №12.
5. Xasbulotov R. (2018) Международные экономические отношения в 3 ч. Часть 1, 3-е изд., Москва. Юрайт – 150
6. Lederman D., Maloney W. (2012) Does What You Export Matter? In Search of Empirical Guidance for Industrial Policies. Latin America Development Forum. Washington, DC, The World Bank, 2012.

7. Гаджиев Ю.А. (2009) Зарубежные теории регионального экономического роста и развития.// Экономика региона. № 2. 45-62 с.
8. Pokrovskaja V.V. (2015) Внешнекономическая деятельность [The foreign economic activity]. Moscow, You-right Publ., 731 p. (In Russ.).
9. Xasbulatov R.I. (2015) Международная торговля [The international trade]. Moscow, Youright Publ. 489 p. (In Russ.).
10. Xasbulotov R. (2018) Международные экономические отношения в 3 ч. Часть 1, 3-е изд., Москва.
11. Козака Ю.Г., Лебедевой С.Н. (2011) Международная экономика: учеб. пособие. Минск: Изд-во Гревцова.
12. Аъзам С.Э. (2018) Применение инструментов гравитационного моделирования для оценки потенциала географической диверсификации внешней торговли Узбекистана// “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали – № 2
13. Аъзам С.Э. (2018) Внешнеторговая деятельность предприятий с иностранными инвестициями в Узбекистане: вопросы трансформации // Экономический анализ: теория и практика. – Т. 17, № 3. – С. 515 – 538
14. Latest statistics on UK's trade performance and balance of payments//House of Commons Library // <https://commonslibrary.parliament.uk/research-briefings/sn02815/>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (2023) rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
16. Trade Map (2023) // International Trade Centre. <https://intracen.org/resources/tools/trade-map>
17. Официальная статистика (2023) // Федеральная служба государственной статистики. <https://rosstat.gov.ru/statistics/accounts>.